



Ahamoniylarning O'rta Osiyodagi davlat boshqaruvi shakli

SH.Suyunova

S.Elmurodova

SHDPI tarix 1-kurs talabalari

Abstract: The article examines the state administration system of the Achaemenid dynasty in Central Asia. Kopro pays attention to the people of Strabia, the development of tax and trade routes. The article analyzes the relations of the Achaemenids with the local population, their respect for their cultural and religious mothers.

Key words: Achaemenids, satrab, Central Asia, Darius I, Cyrus II, Avesta, Shahnoma, talent.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ahamoniylar sulolasining o'rta Osiyodagi davlat boshqaruvi tizimi haqida o'rganiladi ko'proq e'tiborni satrapliklarga soliq va savdo yo'llarini rivojlantirishga qaratadi maqolada ahamoniylarning mahalliy aholi bilan munosabatlari ularning madaniy va diniy ananalariga hiati alohida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ahamoniylar, Satrap, O'rta Osiyo, Doro I, Kir II, Avesto, Shohnoma, talant.

Аннотация: В статье рассматривается система государственного управления династии Ахеменидов в Средней Азии. Копро уделяет внимание народам Страбии,



развитию налоговых и торговых путей. В статье анализируются отношения Ахеменидов с местным населением, их уважение к своим культурным и религиозным матерям.

Ключевые слова: Ахемениды, сатраб, Средняя Азия, Дарий I, Кир II, Авеста, Шахнома, талант.

Kirish: Ahamoniylar davlati qadimgi dunyoning eng yirik davlatlaridan biri bulib mil.avv 558-330 yillarda hukmronlik qilgan. Ahamoniylar davlati hududi Eronni va Hind daryosidan Egey va O'rta dengizgacha bo'lgan oraliqdagi Osiyo mamlakatlarini, shuningdek, Misr, Liviya va Bolqon yarim orolining bir qismini bosib olish natijasida tashkil topgan. Ahamoniylar sulolasi qadimgi fors urug'idan bulib, uning asoschisi Ahamoniy, mil.avv VII asr boshida Elam chegaralariga Parsua deb nom olgan viloyat ko'chib kelgan va fors qabilalarining yo'lboshchisi bo'lgan. Ahamoniylar hukmronligi davrida O'rta Osiyo, Fors podsholarining eng qadimgi sulolasi podshoh Ahmon davridan boshlanadi.[1] Mil.avv Vilasr boshlarida Fors qabilalarining asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilikdan iborat bo'lga. Shuningdek, ular qo'shni qabilalar ustiga tez-tez yurishlar qilib turganlar. Mil.avv VI asrni boshlariga kelib fors podsholari Sharqdagi Elam, Lidiya, Midiya kabi qadimgi davlatlarni bosib oladi. Ahamoniylar sulolasi: Kir II (550-530) (Fors va Anshanda 558 yildan hokimlik qilgan), Kambis II (530-522), Doro I (522-486), Kserks I (486-465), Artakserks I (465-424), Kserks II (424), Sug'diyon yoxud Sekudian (424-423), Doro II (423-404), Artakserks II (404-358), Artakserks III (358-338), Arses (338-336), Doro III (336-330).[2]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Ushbu maqolani yoritishda R.Rajabovning "Qadimgi dunyo tarixi" kitobida asosan Makedoniya davlatining yuksalishi va makedon podshosi Filip II haqida ma'lumotlar keltiriladi makedon podshosi Filipning yurishlari haqida



aytiladi er avv 336 yilda Flipp II ming o'ldirilishi va uning o'rniga 20yoshli Iskandarning o'tirishi haqida fikrlar mavjud. Abdujabbor Kabirovning "Qadimgi sharq tarixi" kitobida Makedoniyalik Aleksandrning hayoti tarixi umuman olganda qilgan ishlari haqida aytib o'tiladi bundan tashqari Sulaymonova "Sharq va g'arb" kitobidan hamda Rtvaledze asarlaridan foydalanib ushbu maqolani yoritishga harakat qilindi.

Muhokama va natijalar: Ahamoniylar davlatiga qadimgi fors podshohlari xonadoni — ahamoniylar vakili Kir II asos solgan. Miloddan avvalgi 558-yil Kir II fors qabilalari ittifoqiga rahbar bo'lib, 553-yil midiyaliklar hukmronligiga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Forslar 550-yil g'alaba qozonganlar va Midiyani egallab, keyingi uch yil mobaynida sobiq Midiya davlati tarkibiga kirgan mamlakatlarni bosib olganlar, 546-yil esa Lidiya va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarini zabt etganlar.[3] 545-539-yillar oralig'ida Kichik Osiyoning katta qismi, 538-yilda Bobil, 525-yilda Misr, 519-512-yillar oralig'ida Egey dengizidagi orollar, Frakiya, Makedoniya va Hindistonning shimoli-g'arbiy qismi bo'ysundirilgan. Ahamoniylar davlati Doro I davrida shakllangan murakkab byurokratik tizim orqali boshqarilgan. Doroning ma'muriy-pul islohotlari bosib olingan mamlakatlar ustidan boshqaruv va nazoratni yanada takomillashtirdi: davlat 20 ta harbiy-ma'muriy satrapiya (okrug)larga bo'linib, ularning tepasida maxsus amaldorlar (satraplar) turgan. Ular fors podshosiga ulkan miqdorda soliqlar (pul va natura holda) to'lashgan. Doro I davrida yagona tanga pul birligi — 8,4 g oltin og'irligidagi doriq joriy qilingan.[4] Sikl (1/20 doriq) mayda kumush tanga vazifasini o'tagan. Ahamoniylar davlati etnik tarkibi va ijtimoiy ukladi bo'yicha turli-tuman bo'lgan. Uning tarkibiga Kichik Osiyo, Bobil, Finikiya va Misr kirib, ularning qishloq xo'jaligi va hunarmandchiligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Iqtisodiy jihatdan shunday rivojlangan mamlakatlar qatorida forslar saltanati tarkibiga Frakiya va Makedoniya kabi viloyatlar kirgan.[5]

Ahamoniylarning O'rta Osiyodagi davlat boshqaruvi: Ahamoniylarning o'rta Osiyodagi davlat boshqaruvi oziga xos tarzda bo'lgan jumladan aholi uchun bir xil soliqlar



uzunlik va ogirlik o'lchovi joriy etganlar. Ahamoniylar davlati barqaror iqtisodiy asosga ega bo'lmagani tufayli beqaror harbiy-ma'muriy birlashma edi, u faqatgina qurol kuchi yordami bilangina turli xalqlarni davlat tarkibida tutib turishga asoslangandi. Ahamoniylarning harbiy qudrati zaiflashishi bilan ularning davlati parchalanib keta boshlagan[6]. Misr, Bobil, Midiya, Kichik Osiyo va boshqa mamlakatlarda ko'plab qo'zg'olonlar ko'tarilgan (mas, 522-yilda Midiyada Gaumata qo'zg'oloni va Marg'iyonadagi qo'zg'olon, 500-493 yillarda kichik osiyolik yunonlar qo'zg'oloni, 405-yil Misrdagi qo'zg'olon).[7] Miloddan avvalgi 5-asr oxiridan boshlab satraplar muntazam suratda o'zaro urush olib borganlar, ba'zan esa hatto podshohning o'ziga ham qarshi qurol ko'targanlar. 500-449 yillardagi yunon-fors urushlari davridayoq fors qo'shinining jangovarlik qobiliyati anchagina yo'qotilgan. Miloddan avvalgi 330-yil Aleksandr Makedonskiy qo'shini zarbalari ostida Ahamoniylar davlati qulagan. Turon xalqlarining Ahamoniylar davlatiga qarshi olib borgan kurashlari haqida: qarang To'maris, Shiroq, Marg'iyona qo'zg'oloni.[8] Ahamoniylar xukmronligi davrida O'rta Osiyo. Fors podshohlarining eng qadimgi sulolasi podshoh Ahmon davridan boshlanadi Ahamoniylar davlatiga qadimgi fors podshohlari xonadoni — ahamoniylar vakili Kir II asos solgan. Miloddan avvalgi 558-yil Kir II fors qabilalari ittifoqiga rahbar bo'lib, 553-yil midiyaliklar hukmronligiga qarshi qo'zg'olon ko'targan. Forslar 550-yil g'alaba qozonganlar va Midiyani egallab, keyingi uch yil mobaynida sobiq Midiya davlati tarkibiga kirgan mamlakatlarni bosib olganlar, 546-yil esa Lidiya va Kichik Osiyodagi yunon shaharlarini zabt etganlar. 545-539-yillar oralig'ida Kichik Osiyoning katta qismi, 538-yilda Bobil, 525-yilda Misr, 519-512-yillar oralig'ida Egey dengizidagi orollar, Frakiya, Makedoniya va Hindistonning shimoli-g'arbiy qismi bo'ysundirilgan.[1] Ahamoniylar davlati Doro I davrida shakllangan murakkab byurokratik tizim orqali boshqarilgan. Doroning ma'muriy-pul islohotlari bosib olingan mamlakatlar ustidan boshqaruv va nazoratni yanada takomillashtirdi: davlat 20 ta harbiy-ma'muriy satrapiya (okrug)larga bo'linib, ularning tepasida maxsus amaldorlar (satraplar) turgan. Ular fors podshosiga ulkan miqdorda soliqlar (pul va natura holda) to'lashgan. Doro I davrida yagona tanga pul birligi



— 8,4 g oltin og'irligidagi doriq joriy qilingan. Sikl (1/20 doriq) mayda kumush tanga vazifasini o'tagan. Ahamoniylar davlati etnik tarkibi va ijtimoiy uklad bo'yicha turli-tuman bo'lgan. Uning tarkibiga Kichik Osiyo, Bobil, Finikiya va Misr kirib, ularning qishloq xo'jaligi va hunarmandchiligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan[3]. Iqtisodiy jihatdan shunday rivojlangan mamlakatlar qatorida forslar saltanati tarkibiga Frakiya va Makedoniya kabi viloyatlar, shuningdek, urug'chilik tuzumining yemirilishi bosqichida turgan ko'chmanchi arab va skif qabilalari ham kirgan. Fors ma'muriyati zabt etilgan mamlakatlarda eski mahalliy qonunlar, urf-odatlar, dinlar, pul tizimi, o'lchov-og'irlik tizimi, yozuv va tillarni saqlab qolgan.[9] Mahalliy tillar qatorida Ahamoniylar davlatining rasmiy idora tili bo'lgan oromiy tili ham keng tarqalgan.

Xulosa va takliflar: Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki Ahamoniylar davlati buyuk davlat hisoblanadi shuningdek hamma davlatda bolgani kabi Ahamoniylar davlatida ham qo'shin bilan shuningdek yuqorida aytganimizdek Ahamoniylar o'rta Osiyoni ham boshqarganlar. Ahamoniylar davlatida har bitta hukmdor davrida oziga xos o'zgarishlar va rivojlanishlar qilinadi. O'rta osiyo Ahamoniylar davlati tarixida judayam katta rol o'ynaydi bevosita Ahamoniylar davlati o'zining hududlaridan ham ko'ra o'rta Osiyo hududiga katta e'tiborini qaratgan bunga bir qancha sabablar bor masalan o'rta Osiyo bozorlari Ahamoniylar tovarlarini sotish uchun judayam qulay bo'lgan shuningdek arzon savdo yo'lida joylashganligi hisobiga ham bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar va manbalar:

1. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
2. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.



3. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРИШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
4. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
5. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOIY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
6. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
7. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO‘LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
8. Begaliyev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
9. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
10. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
11. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
12. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – С. 743-749.